

ELEKTR ENERGIYASI UCHUN TARIF REJALARINI LOYIHALASH

Samiyev Shohrux Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada elektr energiyasi tarmog'ida olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalari, tarmoqda saqlanib qolayotgan muammolar, elektr energiyasini ishlab chiqarish va uzatish jarayonidagi tabiiy monopol holatlari, elektr energetika sohasini tartibga solish va boshqarishdagi muammolar o'rganilib, ularni bartaraf etish yo'llari bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: elektr energetika, elektr energiyasini ishlab chiqarish, tabiiy monopoliya, raqobat muhiti, energiya resurslari, energiya obyektlari, issiqlik elektr stansiyasi, issiqlik elektr markazlari, muqobil energiya manbalari, gidroelektrstansiyasi, neft mahsulotlari.

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются проводимые реформы в системе электроснабжения, их результаты, а также сохраняющиеся проблемы в отрасли. Особое внимание уделено естественным монополиям в производстве и передаче электроэнергии, а также вопросам регулирования и управления в сфере электроэнергетики. На основе анализа предложены рекомендации и практические меры по устранению выявленных проблем.

Ключевые слова: электроэнергетика, производство электроэнергии, естественная монополия, конкурентная среда, энергетические ресурсы, энергетические объекты, теплоэлектростанция, центральные тепловые станции, возобновляемые источники энергии, гидроэлектростанция, нефтепродукты.

Abstract

This scientific article explores the ongoing reforms in the electric power network, their outcomes, and the persistent challenges in the sector. It analyzes the natural monopoly conditions in the production and transmission of electricity, as well as issues in regulation and management of the energy industry. Based on the findings, the paper offers recommendations and practical solutions to address these challenges.

Keywords: electric power sector, electricity generation, natural monopoly, competitive environment, energy resources, energy facilities, thermal power plant, central heating stations, renewable energy sources, hydroelectric power plant, petroleum products.

KIRISH

Insoniyat evolyutsion rivojlanishida suv va shamol tegirmonlari, suv charxpalaklari, o'z harakati uchun shamol kuchidan foydalanuvchi kemalardan foydalangan holda o'z ehtiyojlaring qondirish yo'lida yuqori harakatlarni amalga oshirgan. Jamiyatning rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish hamda insonlar o'z ehtiyojlarini samarali va tez qondirishga bo'lgan talab qanchalik oshib borgan bo'lsa, xuddi shunday insonlarning elektr energiyaga bo'lgan talabi ham parallel ravishda oshib borgan. XX asrga kelib, insoniyat tomonidan elektr energiyani

Issiqlik elektr stansiyalari orqali ishlab chiqarish va undan foydalanish yo'llarini o'rganish va o'zlashtirish bo'yicha haqiqiy inqilob amalga oshirildi. Sanoat va ishlab chiqarish tarmog'ini rivojlantirish maqsadida, juda yuqori quvvatli issiqlik, gidravlik va atom elektr stansiyalar, yuqori va o'ta yuqori, ultra yuqori kuchlanishga ega bo'lgan elektr energiyani uzatuvchi liniyalar qurildi. Hozirgi kunda, elektr energiyaga bo'lgan talab oshib borayotgan bo'lsa-da, lekin ularning ba'zilaridan, ya'ni: quyosh energiyasi, yer va oying o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan energiya, termoyadro sintezi energiyasi, yer issiqligi energiyasidan to'laonli foydalanish yo'lga qo'yilmagan.

Respublikamizda elektr energiyaga bo'lgan talabni raqobatbardosh narxlarda qondirish va mavjud elektr stansiyalarni modernizatsiya hamda rekonstruksiya qilish orqali, elektr energiyani ishlab chiqarishda zamonaviy va kam xarajatli texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarilgan elektr energiyani hisobga olish va uzatish tizimini zamonaviy texnologiyalar yordamida qayta qurollantirish, elektr energiyani ishlab chiqarish sohasiga qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanishni ko'paytirish orqali narx ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'pgina mamlakatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham elektr energetika tarmog'i tabiiy monopoliyalar sohasiga kiradi. Ya'ni elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va iste'molchilarga yetkazib berish bo'yicha, bozorda raqobat muhitining yo'qligi, hukumat tomonidan tabiiy monopoliyalar reyestriga kiritilib, tartibga solinadi va boshqariladi.

Respublikamiz elektr energetika tarmoqlarida olib borilayotgan islohotlar bo'yicha N. Yusupova [1], L.A. Sokolova [2], A.G. Nuriddinova [3] kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ularni aksariyat ilmiy tadqiqot ishlari elektr energetikasi sohasidagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan.

Energetika tarmog'ini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash har doim davlat tomonidan amalga oshirilgan va u doimo tabiiy monopoliyalar sohalari tarkibida bo'lgan. Shu sababdan har doim ishlab chiqarilgan elektr energiyasi narx (tarif) lari davlat tomonidan belgilab kelingan.

Dunyoda elektr energiyani ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatlar guruhi quyidagicha joylashgan: Janubiy Amerika, G'arbiy Yevropa, Osiyo, MDH mamlakatlari, Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda umumiy elektr energiyasining 80 foizi ishlab chiqarilsa, rivojlanayotgan mamlakatlar esa 20 foizni tashkil qiladi. [4]

Elektr energetika sohasi xalq xo'jaligini har qanday ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan umumdavlat va o'zgarmas resurslar bilan ta'minlovchi iqtisodiyotning asosiy sektorini tashkil etadi. Elektr energiyasini uzatish va tarqatish sohasida raqobatni rivojlantirishga qaratilgan obyektiv to'siq, har qanday infratuzilma sohasida bo'lgani kabi, ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlari bo'lib hisoblanadi. [5]

Rivojlangan davlatlar elektr energetika sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar, elektr bozorida o'z iste'molchilariga ega bo'lish uchun, doimo

o'zlarining an'anaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirib borish-moqda. Jumladan, sohani rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqilmoqda, elektr energiyasi uchun oldindan to'lov-ni amalga oshirish bo'yicha rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilmoqda, sohada kapital qo'yilmalar kirish tizimini takomillashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishda samarali innovatsion g'oyalarga asoslangan dasturlari ishlab chiqilmoqda. [6]

Energetika sohasidagi mavjud muammolar yig'ilib, soha va tarmoqlarning rivojlanishi va ularning moliyaviy holatini shubha ostiga solib qo'yishi mumkin. Buning oldini olish uchun elektr energetikasi sohasi rivojlanishiga munosib tarzda (qayta tiklanadigan manbalardan foydalanishni kengaytirish, kam xarajatli texnologiyalardan samarali foydalanish, foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lovlarni oldindan to'lab borish, sohaga xorijiy kapital miqdorlarini jalb qilishni oshirish orqali raqobat muhitini shakllantirish) e'tibor qaratish kerak bo'ladi. [7]

Mamlakatimizda amalda bo'lgan qonunchilik me'yorlariga ko'ra, elektr energetika tarmog'i tabiiy monopoliyalar tarkibiga kiradi. Qonunchilikka asosan, tabiiy monopoliyalarni tartibga solishda quyidagilar qo'llaniladi:

- Ishlab chiqarilgan yoki ko'rsatilgan xizmat uchun (ro'yxat asosida) narx (tarif) larni belgilash har doim davlat tomonidan belgilangan.
- Tabiiy monopoliya sohaslariga kiruvchi tarmoq, korxonalar va tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ular tomonidan ko'rsatilgan xizmat turlari bo'yicha ayrim toifadagi iste'molchilar (ro'yxatga kiritilgan) uchun cheklangan narxlarda amalga oshiriladi.

METODOLOGIYA

Maqolada mamlakatimizdagi elektr energetika tarmog'ini narxlarning shakllanish muammolari ilmiy jihatdan o'rganish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotimizning barcha tarmoq va sohaslarini barqaror rivojlantirish, sohalarga investitsiyalarni samarali jalb etish orqali tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, sohalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish orqali sog'lom raqobat muhitini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, ayrim sohalarda, jumladan, elektr energetika tarmog'ida ko'pgina hal etilishi mumkin bo'lgan muammolar saqlanib qolmoqda. Bularga misol tariqasida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: elektr energiyani ishlab chiqarish sohasida raqobat muhitining yo'qligi; elektr energiyani magistral liniyalar orqali uzatish sohasi – tabiiy monopoliya mavqeyini doimo saqlab qolishi; elektr energiyani hududiy tarmoqlar bo'yicha yetkazib berish sohasi hozirgacha davlat tasarrufida qolayotgani, sohada raqobat muhiti shakllanmayotganligi; elektr energiya uchun narx (tarif)larni belgilash bozor tamoyillariga asoslanmagani, hozirgacha davlat tomonidan narx (tarif)larni belgilash amaliyotining saqlanib qolayotgani; tabiiy

monopoliyalar davlat reyestriga kiritilgan sohalarni nazorat qilish tizimining eski va iqtisodiy samarasiz ekanligi. Bularning barchasi, albatta, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda elektr energiyani ishlab chiqarish issiqlik elektr stansiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan amalga oshiriladi. Elektr energiyani magistral liniyalar orqali uzatish va elektr energiyani hududiy elektr tarmoqlari orqali iqtisodiyot tarmoqlari va iste'molchilarga yetkazib berish borasida bir qancha muammo va kamchiliklar mavjud. Shu bilan bir qatorda, energetika resurslaridan foydalanganda, jumladan, elektr energiyaga narx belgilash va sohada tarif siyosatini samarali olib borishda bevosita va bilvosita ta'sir qiluvchi muammolar saqlanib qolmoqda. Aynan elektr energiya tarmog'ida narx (tarif) shakllanishidagi muammolarni ilmiy – nazariy jihatdan o'rganish va tadqiq qilish doimo muhim hisoblanadi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida elektr energetika tarmog'i muhim hisoblanadi. Chunki elektr energiya narxlarining o'sishi boshqa tarmoqlarda ham narx o'sishiga olib keladi. Lekin ko'pchilik elektr energiya manbalarini mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda asosiy xomashyo sifatida qaramaydi. Shuning uchun hozirda dunyoda energetika inqirozi yuzaga kelmoqda. Energetika tarmog'idagi mavjud muammolar yig'ilib, soha va tarmoqlarning rivojlanishi va ularning moliyaviy holatini shubha ostiga solib qo'yishi mumkin. Buning oldini olish uchun elektr energetikasi sohasi rivojlanishiga munosib tarzda (qayta tiklanadigan manbalardan foydalanishni kengaytirish, kam xarajatli texnologiyalardan samarali foydalanish, foydalanilgan elektr energiya uchun to'lovlarni oldindan to'lab borish, sohaga xorijiy kapital miqdorlarini jalb qilishni oshirish orqali raqobat muhitini shakllantirish) e'tibor qaratish kerak bo'ladi.

«Mamlakatimizda asosiy energiya resurslarining narxi past bo'lib qolayotgani, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'zini oqlamasligini, albatta, hammamiz yaxshi tushunamiz. Masalan, O'zbekistonda aholi va sanoat korxonalarini uchun 1 megavatt soat elektr energiyani narxi 25 AQSH dollarini tashkil etadi. Germaniyada esa, bu narx aholi uchun – 332 dollar, korxonalar uchun – 144 dollardan iborat. Rossiyada tegishli, 47 va 51 dollarni, Hindistonda 68 va 87 dollarni tashkil etadi. Shuningdek, 1000 kub metr tabiiy gazning narxi O'zbekistonda - 32,9 dollar, Shvetsiyada - 1552, Portugaliyada - 1132 dollardan ziyod, Italiyada - 1045, Germaniyada - 785 dollardan, Angliyada esa, 770 dollardan ortiqni tashkil etadi. Bu raqam Rossiyada 83 dollardan, Qozog'istonda 45 dollardan ziyoddir».

Yuqorida ta'kidlanganidek, elektr energiya uchun narx (tarif)lar qolgan davlatlarga nisbatan bizning mamlakatimizda ancha arzon. Chunki bizning mamlakatimizda narx (tarif) lar davlat tomonidan belgilanadi. Elektr energiyani ishlab chiqarish xarajatlari biz to'laydigan narxlardan ancha qimmatga tushadi. Soha har doim davlat tomonidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlab kelinadi. Shuning uchun elektr energetika tarmog'ida aniq strategik dasturlar ishlab chiqish orqali elektr energiyani ishlab chiqarish, magistral liniyalar orqali uzatish va hududiy tarmoqlar orqali yetkazib berish tarmoqlari uchun xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini xususiylashtirib, tadbirkorlik muhitini shakllantirish orqali raqobat muhitini

rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan ko‘proq foydalanishni yo‘lga qo‘yish orqali elektr energiyani ishlab chiqarish talab etiladi.

Elektr energiya uchun joriy va kapital xarajatlarni qoplashga asoslangan hisob-kitob tarifini nazarda tutuvchi va tarmoqqa xususiy sektorni jalb qilishni rag‘batlantiruvchi elektr energetika tarmog‘idagi siyosatini takomillashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-apreldagi “Elektr energetika tarmog‘ida tarif siyosatini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi №310-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda quyidagilarni amalga oshirish nazarda tutilgan: 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasi elektr energetika tarmog‘idagi tarif siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash; elektr energiya uchun tariflarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom qabul qilindi.

Respublikamizda tarif va narx siyosati borasida bir qancha olimlarimiz o‘z fikrlarini bildirishgan yoki ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Tarif usullarini qo‘llash tarafdorlarining fikricha, tariflarning iqtisodiyotga ijobiy ta‘siri quyidagicha bo‘ladi:

- Tariflar yosh tarmoqlarni himoya qilishga xizmat qiladi.
- Davlat byudjetining daromad manbai sifatida foydalaniladi.
- Mamlakat ichkarisida daromadni qayta taqsimlash faollashadi.
- Arzon xorijiy ishchi kuchini jalb etish imkoniyati yaxshilanadi.
- Mamlakatning xomashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashuvining oldi olinadi.

Tarif usullarini qo‘llashga qarshi bo‘lganlarning fikricha, tariflarning iqtisodiyotga salbiy ta‘siri quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tashqi savdoda tariflarni cheklash amaliyoti amalga oshirilsa, dunyoda ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga sabab bo‘ladi
- mamlakatlar o‘rtasida tovarlarning optimal taqsimotiga to‘sqinlik qiladi;
- iste‘molchiga soliq yukining ortishiga olib keladi/
- importga belgilangan tariflar eksport hajmining qisqarishiga ta‘sir qiladi.
- tariflarning belgilanishi mamlakatdagi ishsizlik darajasining oshishiga sabab bo‘ladi.


“Narx shakllantirishning ikkita asosiy tizimi xarakterlidir: birinchisi — talab va taklif o‘zaro munosabatlari asosida faoliyat ko‘rsatadigan bozor narxi shakllanishi; ikkinchisi — davlat tomonidan mahsulot va xizmatlar uchun narxlarni belgilash”.

Jahon xo‘jaligida narx shakllanishiga dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ishlab chiqarish tashkilotlariga ega bo‘lgan va bir qator mahsulotlarni ishlab chiqarishni monopollashtirishga harakat qiluvchi yirik transmilliy korporatsiya va konsernlar ham ta‘sir ko‘rsatadi. Narxni oshirish uchun bu kompaniyalar sifat monopoliyasidan foydalanadilar hamda ayrim mahsulot turlariga ishlab chiqarishning baynalmilal narxlaridan farq qiluvchi narxlarni belgilaydilar.

Tartibga solinadigan faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilot quyidagi faoliyat bo‘yicha alohida hisob yuritishga majbur: elektr energiyani ishlab chiqarish; issiqlik energiyasini ishlab chiqarish; elektr energiyani magistral elektr tarmoqlar bo‘yicha uzatish; elektr energiyani oxirgi iste‘molchilarga taqsimlash va sotish.

Tartibga solinadigan tariflarni belgilashda keltirilgan faoliyatlar bo'yicha bir xil xarajatlarni qayta hisobga olishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasida 2014-2023-yillarda elektr energiya narxлари 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. O'zbekistonda 2014-2023-yillarda elektr energiyasi narxлари¹

1-rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2014 yilda 1 kVt.soat elektr energiya narxi aholi uchun 131,4 so'mni, sanoat korxonalarini uchun 250 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 1 kVt.soat elektr energiya narxi aholi uchun 295 so'mni, sanoat korxonalarini uchun 450 so'mni, 2022-2023-yilda aholi uchun 295 so'mni, korxonalar va tashkilotlar uchun mos ravishda 600 va 900 so'mni tashkil qilgan.

1-jadval.

Tabiiy gazning aholi uchun maqbulligi bo'yicha Yevropa mamlakatlari reytingi (2023-yil)²

№	Mamlakat	O'rtacha ish haqiga to'g'ri keladigan gaz miqdori, m ³	1000 kubometr gaz narxi, AQSh dollarida
1	Lyuksemburg	4300,6	1020,3
2	Qozog'iston	9899,6	62,3
3	Rossiya	7642,6	96,5
4			
5	Buyuk Britaniya	3262,9	1086,1
6	Germaniya	2942,4	1078,0
7	Belgiya	1948,1	1560,5
8	Irlandiya	2064,1	1767,8
9	Avstriya	2333,6	1414,5
10	Gollandiya	1736,0	2204,9

Mamlakat mustaqillikka erishishidan oldingi davrda elektr energetika tarmog'i nafaqat respublikamizni, balki qo'shni respublikalarning ham ayrim hududlarini elektr energiya bilan ta'minlab kelayotgan edi. Mustaqillikka erishilgandan keyin elektr energiyani ishlab chiqarish tarmog'i moliyaviy jihatdan juda qiyin holatda qoldi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

² Manba: uzanalytics.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Chunki aynan elektr energetika tarmog'i qolgan barcha tarmoq, korxonalar va tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishi uchun xizmat qiladi.

Dunyo mamlakatlarida tabiiy gaz va elektr energiyaning aholi uchun o'rtacha oylik ish haqini hisobga olgan holda hisoblangan maqbullik reytinglari mavjud. Yevropa mamlakatlari bo'yicha tuzilgan ana shunday reytinglarda elektr energiya yoki gazning hozirgi narx-navodan kelib chiqib, bir oylik o'rtacha ish haqiga necha m³ gaz yoki qancha kilovatt elektr energiyani xarid qilish mumkinligi hisoblanadi. So'ngra aholining ushbu mahsulotlardan foydalana olish darajasiga qarab, reyting tuziladi. Mazkur reytingda mamlakatning egallagan o'rnini qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu mamlakat aholisining elektr energiya yoki gazdan foydalana olish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi (1-jadval).

Mazkur jadvaldagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yilda tabiiy gazning aholi uchun maqbullik darajasi bo'yicha Yevropa mamlakatlari reytingi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, o'rtacha ish haqiga to'g'ri keladigan gaz miqdori, kubometrda: Lyuksemburgda — 7870 m³, Qozog'istonda — 7521 m³, Rossiyada — 6652 m³, O'zbekistonda — 5507 m³, ya'ni respublikamiz 10 ta mamlakat ichida 4-o'rinda turibdi. 1000 m³ gaz narxi, AQSh dollarida hisoblanganda O'zbekistonda 43,64 AQSh dollarida, ya'ni eng arzon narxda ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ikkinchi o'rinda — Qozog'istonda 49,5 AQSh dollarida, uchinchi o'rinda — Rossiyada 95,4 AQSh dollariga to'g'ri kelmoqda. Aholiga eng qimmat gaz sotilishi Gollandiya to'g'ri kelmoqda, ya'ni 993,2 AQSh dollarida baholangan. Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda, O'zbekiston ushbu ko'rsatkich bilan aholining tabiiy gazdan foydalanish darajasi reytingida, shartli ravishda, 4-o'rinni egallashi mumkin.

2-jadval

Elektr energiyaning aholi uchun maqbulligi bo'yicha mamlakatlar reytingi (2023-yil)¹

№	Mamlakat	O'rtacha ish haqiga to'g'ri keladigan o'rtacha elektr energiyasining miqdori, kVt/s	1 kVt/s elektr energiyasi narxi, AQSh dollarida
1	Lixtenshteyn	31307	0,19
2	Ispaniya	28377	0,16
3	Lyuksemburg	20670	0,20
4	Norvegiya	19689	0,22
5	Gollandiya	17508	0,20
...			
11	Qozog'iston	12604	0,03
12	Rossiya	12066	0,05
...			
24	O'zbekiston	7094	0,04
...			
30	Belorussiya	5784	0,08
...			
35	Turkiya	5088	0,10

¹ Manba: uzanalytics.com ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Elektr energiyaning aholi uchun maqbulligi bo'yicha Yevropa mamlakatlari reytingi 2-jadvalda keltirilgan.

Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlar elektr energiyaning aholi uchun maqbullik darajasi bo'yicha 2023-yilda Yevropa mamlakatlari reytingida o'rtacha ish haqiga to'g'ri keladigan o'rtacha elektr energiyaning miqdori, kVt/soatda hisoblanganda birinchi o'rinda Lixtenshteyn — 31307 kVt/s, ikkinchi o'rinda Ispaniya — 28377 kVt/s, o'n birinchi o'rinda Qozog'iston — 12604 kVt/s, o'n ikkinchi o'rin Rossiya — 12066 kVt/s, yigirma to'rtinchi o'rinda O'zbekiston 7094 kVt/soatga to'g'ri kelgan. Belorussiya mamlakati o'ttizinchi o'rinda bo'lsa, 5784 kVt/s, Turkiya mamlakati o'ttiz beshinchi o'rinda, ya'ni 5088 kVt/soat bilan joylashgan.

1 kVt/s elektr energiyasi narxi, AQSh dollarida hisoblanganda eng qimmat elektr energiya narxi bo'yicha birinchi o'rinda Norvegiya — 0,22 AQSh dollari, ikkinchi o'rinda — Lyuksemburg va Gollandiyada — 0,20 AQSh dollarida hisoblangan bo'lsa, eng arzon elektr energiya Qozog'istonda — 0,03 AQSh dollarida, O'zbekistonda — 0,04 AQSh dollari, Rossiyada esa, 0,05 AQSh dollarini tashkil qilmoqda.

O'zbekiston aholisi uchun elektr energiyadan foydalanish borasida vaziyat butunlay boshqacha bo'lib, tarifga ko'ra (1 kVt/soat uchun 295 so'm), respublika Yevropaning 42 ta mamlakati kiritilgan reytingda, shartli ravishda, 24-o'rinni egallashi mumkin.

Bu, Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda, O'zbekiston aholisi uchun elektr energiyaning maqbulligi o'rtacha darajada deganidir. Agar 1 kVt/soat elektr energiya narxi, hukumat rejalashtirayotganidek, 480 so'mgacha oshadigan bo'lsa, O'zbekiston ushbu reytingda faqatgina Albaniya va Moldovani ortda qoldirib, eng oxirgi o'rinlardan birini, ya'ni 41-o'rinni egallashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizning elektr energetika tarmog'i hozirgi kunda uchta mustaqil tashkilotga aylantirilgani uchun, bunda boshqaruv xarajatlari birmuncha oshgan. Shu bilan birga, ayrim masalalarda noqulayliklar vujudga kelgan, jumladan, sohada foydalanilgan elektr energiya uchun to'lovlardan pul tushumlarining hisob-raqamlar orqali aylanishdagi noqulay vaziyat. Mustaqil tashkilotlarga aylangan jamiyatlarda zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash orqali quyidagi tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi:

- Elektr energiyani ishlab chiqarish sohasida xususiy sherikchilik munosabatlarini takomillashtirish, sohaga xorijiy investorlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatini himoya qilgan shartlar asosida jalb qilish.
- Elektr energiyani ishlab chiqaruvchi, uzatib beruvchi va yetkazib beruvchi korxonalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi manfaatli boshqaruv munosabatlarini takomillashtirish va ular boshqaruvida zamonaviy innovatsion usullarni qo'llash.
- Iqtisodiyot tarmoqlari uchun tabaqalashtirilgan va aholiga imtiyozli chegirmalar asosida elektr energiya narx (tarif) larini belgilash.

- Mamlakatimizda elektr energiya uchun to'lovni amalga oshirishning rag'batlantiruvchi mexanizmlarini (keshbeklar asosida) joriy etish.
- Respublikamizda elektr energiyadan foydalanganlik uchun aholining to'lovga layoqatsiz qatlami uchun alohida narx (tarif)lar belgilash.
- Issiqlik elektr stansiyalari va markazlarni boshqarishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanishni yo'lga qo'yish.
- Elektr energiyani ishlab chiqarish va hududiy elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish sohasida sof raqobat muhitini shakllantirish.
- Elektr energiyani ishlab chiqaruvchi issiqlik elektr stansiyalari va markazlar tomonidan mustaqil tarzda yirik sanoat korxonalariga to'g'ridan-to'g'ri elektr energiyani uzatish imkoniyatini yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. Цоколова Л. ва бошқалар. Экономические аспекты регулирования водно-энергетического баланса реки Сырдарья. // Энерго и ресурсосбережения, 2005, №1, -С.131-138.
2. Нуриддинова А. Организация инновационной деятельности в электроэнергетике Узбекистана. // Материалы конференции ВИИ Международного Форума «Высокие технологии XXI века» 2006 г. Москва., -С. 351-352.
3. Majidov T. Noan'anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. Darslik - T.: 2016.
4. Saidov Mash'al Samadovich (2021) Elektr energetika sohasini boshqarishda xorij tajribasidan foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim, 2021-yil, 6-son.
5. Yo'ldoshev N.Q., Saidov M.S., Samiyev Sh.F. (2022) O'ZBEKISTONDA ELEKTR BOZORINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI: SWOT –TAHLILI. Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 1-son <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/348/390>
6. Saidov Mash'al Samadovich (2023) Elektr energetika tarmog'ini boshqarishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 1/2023, yanvar-fevral (No 00063). <https://iqtisodiyot.tsue.uz/journal/index.php/iit/article/view/195/228>
7. Saidov Mash'al Samadovich (2023). Ways of Introduction of Modern Management Mechanisms in the Electric Power Sector of Uzbekista. International Journal of Business Diplomacy and Economy Volume 2, No 1 | Jan- 2023. P. 98-110. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/977/843>
8. Saidov Mash'al Samadovich (2023). Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan. INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT ISSN (electronic): 2620 — 6269/ ISSN (printed): 2615 – 4021 Vol. 5 No. 1 | January 2023. P. 38-52. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>

9. Saidov Mashal Samadovich (2023). Improving Management Efficiency at Oil and Gas Industry Enterprises in Uzbekistan. Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 25, Jan-2023. P. 15-24. ISSN 2697-2212 Available Online:<https://economics.academicjournal.io/index.php/economics/article/view/622/620>
10. Saidov Mashal Samadovich (2022) WAYS TO ENSURE ENERGY SECURITY IN UZBEKISTAN. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 21 Feb 2022. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1062/977>
11. N.K.Yuldashev, M.S. Saidov. (2023) The Economy of the Countries of the World is Experiencing the Need for Nuclear Power Plants. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMEN. ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1890/1718>
12. Saidov Mashal Samadovich, Bobamuradov Behruz (2023) Improving Government Regulation of Corporate Governance. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023 <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1900/1729>
13. Saidov Mashal Samadovich, Kudratov Nuriddin Khamza ugli (2023) Priority Directions of Development of Institutional, Regulatory and Legal Systems of Corporate Governance. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1906/1735>
14. Saidov Mashal Samadovich, Rakhimberdiev Khatamboi Dilshodzhon ugli (2023) Organization of Production and Management of New Enterprises. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1908/1737>
15. Saidov Mashal Samadovich, Alimov Aziz (2023) Methods of Organizing Corporate Governance at the Enterprise. AMERICAN JOURNAL OF ECONOMICS AND BUSINESS MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1910/1739>
16. Saidov Mashal Samadovich, Ruziev Erali Yarash ugl (2023) Features of the System of Digital Information and Communication Technologies in the Management of Companies. MANAGEMENT ISSN: 2576-5973Vol. 6, No.1,2023. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm/article/view/1911/1740>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, mart, 3-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournlbot](https://t.me/marketinjournlbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**